

XX ASR IKKINCHI YARMI HINDIY NASRIDA “BEGONALASHUV” KONSEPSIYASINING
BADIY-FALSAFIY TALQINI
(*Nirmal Varma hikoyalari misolida*)

Tilovmurodova Shamsiqamar Furqat qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi 3-kurs tayanch doktoranti

tilovmurodovashamsiqamar@gmail.com,

shamsiqamar_tilovmurodova@tsuos.uz

ORCID: 0009-0005-4388-3354

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929275>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi zamonaviy hindiy nasrida, xususan, taniqli yozuvchi Nirmal Varma hikoyalari bagonalashuv konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqini tadqiq etiladi. Adib hikoyalari inson ruhiyatidagi eksistensial inqirozlar, shaxs va jamiyat ziddiyati hamda bagonalashuvning shakllanish bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: hindiy nasri, Nirmal Varma, bagonalashuv konsepsiyasi, modernizm, eksistensializm, shaxs va jamiyat, badiiy talqin.

Аннотация: В данной тезисной работе исследуется художественно-философская интерпретация концепции отчуждения в современной прозе хинди, в частности, на примере рассказов известного писателя Нирмала Вармы. Анализируются экзистенциальные кризисы в человеческой психике, противоречия между личностью и обществом, а также этапы формирования отчуждения в рассказах автора.

Ключевые слова: проза хинди, Нирмал Варма, концепция отчуждения, модернизм, экзистенциализм, личность и общество, художественная интерпретация.

Abstract: This abstract examines the artistic and philosophical interpretation of the concept of alienation in modern Hindi prose, specifically through the stories of the prominent writer Nirmal Varma. It analyzes existential crises in human psychology, conflicts between the individual and society, and the stages of alienation depicted in the author's stories.

Keywords: Hindi prose, Nirmal Varma, concept of alienation, modernism, existentialism, individual and society, artistic interpretation.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon adabiy jarayonida roʻy bergan murakkab gʻoyaviy-estetik burilishlar va eksistensial izlanishlar milliy adabiyotlar, xususan, zamonaviy hindiy nasri rivojiga ham kuchli taʼsir koʻrsatdi. Ushbu davrda yaratilgan asarlarda inson ruhiyatining murakkab qatlamlari, shaxs va jamiyat oʻrtasidagi ziddiyatlar hamda bagonalashuv fenomeni markaziy tadqiq obyekti sifatida namoyon boʻldi. Bu borada hind modernistik va norealistik hikoyachiligining yorqin namoyandasi Nirmal Varma ijodi alohida ajralib turadi.

Nirmal Varmaning jahon adabiyoti va falsafasi bilan yaqindan tanishligi, shuningdek, Yevropada orttirgan tajribasi uning adabiy yoʻnalishlar chegarasini yorib oʻtib, oʻziga xos ijodiy uslubga asos solishiga imkon berdi. Adib ijodini roman, esse va hikoyalar kabi turli nasriy janrlar boyitgan boʻlsa-da, uning eng takrorlanmas va boy merosi hikoyachilik faoliyati hisoblanadi. Yozuvchi ijodining ilk bosqichidanoq modernistik gʻoyalarga tayanib yoritgan “bagonalashuv” masalasi keyinchalik uning butun badiiy dunyosining markaziy mavzusiga aylandi.

“Bagonalashuv” atamasi lotincha alienatio (oʻtkazish, taslim boʻlish, ajratish, ajralish) soʻzidan olingan boʻlib, umuman olganda, insonning oʻzidan va oʻzgalardan uzoqlashishi, yolgʻizlik hamda ajralish hissini anglatadi. Britannika ensiklopediyasida bagonalashuvga “shaxsning oʻz atrof-muhitidan, mehnatidan, faoliyat natijasidan yoki oʻz-oʻzidan uzilgan va ajralgan holatini his qilish holati” deb taʼrif beriladi. Adabiyotda bagonalashuv shaxsning unga qarama-qarshi yoki begona sharoitlarda (ijtimoiy tuzum, muhit, turmush tarzi, anʼanalari) rivojlanishi natijasida sodir boʻladi. Asarlarda bu hodisa insonning jamiyatdan, tabiatdan, moddiy olamdan, mehnat jarayonidan hamda oʻzligidan uzoqlashuvi shaklida namoyon boʻlib, qahramonning ruhiy holatida chuqur inqirozlarni keltirib chiqaradi.

Gʻarb va jahon adabiyotshunosligida bagonalashuv mavzusi dastlab J.P. Sartr, E. Heminguey, A. Kamyu hamda V. Nabokov kabi ateistik ekzistensializm vakillari ijodida atrofli tahlil qilingan. Gʻarb

adabiyotshunosi Nansi Grey Diaz o‘z tadqiqotlariga tayanib, begonalashuvning quyidagi 6 ta bosqichini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Makondan begonalashuv (mamlakat, davlat, tabiatdan uzoqlashuv);
2. O‘z davridan begonalashuv;
3. Jamiyatdan begonalashuv;
4. Ma’lum bir jamoadan begonalashuv (oilalar, muayyan guruhlar);
5. O‘zlikdan begonalashuv (ruhiy holatlar va inqirozlar bilan bog‘liq);
6. Insonsizlikdan (borliqdan) chiqib ketish (o‘lim bilan yakunlanuvchi holat).

Nirmal Varma hikoyalarini tadqiq etish jarayonida begonalashuv tushunchasi uning asarlarining leytmotifiga aylangani ma’lum bo‘ldi. Adib begonalashuv hodisasiga o‘z falsafiy va milliy qarashlari orqali yondashib, shunday yozadi: “Insonning bu da’vosiz begonalashuvi va to‘liq emasligi – G‘arb tomonidan o‘ylab topilgan shunchaki zamonaviy ijod mahsuli emas. U insoniyat orasida bir qurt kabi mavjud bo‘lib, uning yer yuzidagi “borliq” tuyg‘usiga asoslangan. Insoniyatning butun afsonaviy tuzilmasi, diniy qonun-qoidalari, tasavvurlari va zamonamizdagi mutlaq inqilob orzusi ana shu la’nati yetimlikdan qutulish uchun qilingan ulug‘vor, fojiali va matonatli urinishdir.” Shu bois, Nirmal Varma ijodiy merosining eng muhim ahamiyati insonning ichki dunyosini butun koinotdagi eng ozod va erkin makon sifatida baholagandadir.

Yozuvchining shakllanishida G‘arb adabiyoti bilan yaqindan muloqot, bolaligidan buvasi ta’siri ostida o‘rgangan milliy adabiyoti hamda universitet yillarida egallagan falsafiy bilimlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi. Biroq ta’kidlash joizki, Varma asarlaridagi muhojirlik va ayriqlik hissi shunchaki geografik vatandan uzoqda bo‘lishni anglatmaydi. Yozuvchi bu uslub orqali hindiy adabiyotida begonalashuv mavzusini badiiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qiladi. Uning talqinida vatandan va zohiriy dunyodan yiroqlashish qahramonlar uchun ruhiy ozodlikka erishish imkoniyatini beradi, ya’ni insonning ichki olami eng erkin makon sifatida qabul qilinadi.

Adibning “जलती झाड़ी” (“Yonayotgan buta”, 1965), “पिछली गर्मियों में” (“O‘tgan yozda”, 1968) va “बीच बहस में” (“Munozara o‘rtasida”, 1973) nomli hikoya to‘plamlaridagi asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasida begonalashuv masalasi o‘zining turli ko‘rinishlarida aks etgan. Begonalashuv konsepsiyasining 6 ta bosqichidan adibning “Bir kunlik mehmon” hamda “Zulmatda” hikoyalarida, ayniqsa, oiladan, jamiyatdan hamda borliqdan (insonsizlikdan) begonalashuv muammosi o‘ta ta’sirchan va teran ifodalangan.

Xulosa qilib aytganda, Nirmal Varmaning yangi uslubdagi hikoyalari intellektual jihatdan shakllangan, teran fikrlaydigan, shaxsiy ramzlar va yashirin ma’nolar qatlamini tushuna oladigan kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Nafaqat Hindiston, balki jahon adabiyotida ham munosib o‘ringa ega Nirmal Varmaning norealistik va eksistensial ruhdagi hikoyalari kitobxonda hayot mohiyatini anglash hamda har qanday murakkab va fojiali sharoitda ham insoniy qadriyatlarni saqlab qolish zarurligini targ‘ib etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmuhammedov M.K. Adabiyot nazariyasi. 1–tom. – T.: Fan, 1978. – 272 b.
2. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 392 b.
3. Xodjayeva T.A. Hindiston xalqlari adabiyoti. – T.: ToshDSHI, 2010. – 204 b.
4. Xodjayeva T.A., Muxibova U.U. Hindiston adabiyoti. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 552 b.
5. Ulug‘bek H. Jahon adabiyoti: modernism va postmodernism. – T.: Akademnashr, 2020. – 288 b.
6. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. – T.: O‘zbekiston, 1997. – 415 b.
7. Цветкова С.О. Очерки истории литератур Индии: X–XX вв. – СПб.: Санкт-Петербургский Государственный Университет, 2014. – 320 с.
8. Серебряков И.Д. Литературы народов Индии. – М.: Высшая школа, 1969. – 303 с.
9. Чаухан Ш. Очерк истории литературы хинди. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – 321 с.
10. Чельшев Е.П. Избранные труды. В 3 т. Т. 1. Исследования новой и современной индийской литературы. – М.: Наука, 2001. – 788 с.
11. Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – 672 b.
12. Бескровный В.М. Хинди–русский словарь. – М.: Наука, 1959. – 907 с.

13. हरदेव ब. राजपाल हिंदी शब्दकोश. द.: राजपाल एन्ड सन्ज़, 2019. – 980 प.
14. द्विवेदी ह.प. हिन्दी साहित्य की भूमिका. द.: राजकमल प्रकाशन, 2017. – 245 प.